

**TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLAR ORQALI
PEDAGOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

NAVOIY VILOYATI NAVOIYSHAXRI
11-MAKTAB INGLIZ TILI FANI O'QITUVCHISI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGGOGIKA INSTITUTI
MAGISTRANTI **MUSTAFOYEVA MOHINUR MURODJON QIZI**

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar orqali pedagogik muammolarni bartaraf etish yo'llari xaqida so'z boradi. bundan tashqari tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etishning ahamiyati, uning asosiy xususiyatlari va yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish uchun tizimlilik, ilmiy yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganlik, shaxsiy yondashuv kabi tamoyillar muhim ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va jamoatchilik bilan hamkorlikning tarbiyaviy jarayondagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. tarbiya, oliy ta'lim, tizimli yondashuv, milliy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, jamoatchilik bilan hamkorlik

ASOSIY QISM

Ta'lim muassasalari nafaqat ilmiy bilim beruvchi markaz, balki o'quvchilarning shaxsiy va ma'naviy rivojlanishiga ko'mak beruvchi muhim tarbiya maskanidir. Ta'lim jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarni ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga ham qaratilgan bo'lishi kerak. Shu sababli, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning mafkuraviy qarashlarini mustahkamlash, ularning milliy qadriyatlarga hurmat bilan yondashishini shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli shaxslar etib tarbiyalash ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun tarbiyaviy ishlar tizimli va rejalashtirilgan tarzda olib borilishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanilishi lozim. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, tarbiyaviy ishlarning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni va uni rivojlantirish yo'llari ham yoritiladi. Ta'lim atamasi maqsadli jarayonni anglatadi, uning maqsadi shaxsiy rivojlanishga hissa qo'shadigan ma'lum ko'nikma va bilimlarni olishdir. Bu maktabdagi baholar yoki o'rganilgan darslarga hech qanday aloqasi yo'q. Ta'limning maqsadi insonni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Ta'lim nima uchun kerak? Ta'limga odamlar uchun muhim o'rin ajratiladi. U tajribani avvalgi avlodlardan yangi avlodlarga

o'tkazishga yordam beradi. Bu insoniyatning rivojlanishiga, taraqqiy etishiga yordam beradi. Hozirgi zamon kishisi hayotida ta'limning o'rni beqiyosdir. Bu o'ziga xos vaqt chorrahasi: biz hozirgi zamonda yashaymiz, kelajakni yaxshiroq qilish uchun o'tmish yutuqlarini o'rganamiz. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlikda yaxshi ta'lim olgan odamlar keksalik davrida aqliy yoki ruhiy kasalliklardan kamroq aziyat chekadilar, Alsgeymer kasalligiga kamroq moyil bo'ladilar.

Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish masalasiga oid ilmiy-adabiy manbalar turli yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lib, bu borada pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ta'lim boshqaruvi sohalarida turli tadqiqotlar olib borilgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda (J.J. Dewey, P. Freire) interfaol va tajribaga asoslangan o'qitish metodlarining tarbiyaviy jarayonga ta'siri o'rganilgan. Dewey ta'limning jamiyat bilan bog'liqligi va uni hayotiy tajriba orqali olib borish g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, Freire tanqidiy pedagogika tamoyillarini ilgari surib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratgan.

Ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlar. Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'limtarbiya tizimini rivojlantirish"ga oid qarorlari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Zamonaviy davrda ta'lim sifati muammosi asosiy deb qaraladi. Tadqiqotchilar umumta'lim, oliy ta'lim tashkilotlarida modernizatsiya transformatsiyalarini qayd etish bilan birga, ta'lim sifatining yomonlashishini ta'kidlaydilar. Bugunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri ham shu. Zamonaviy pedagogik muammolar – bu ta'lim tizimi, pedagogika, o'qituvchilarning ishlash jarayonida duch keladigan, o'quvchilarning ehtiyojlari va jamiyatning o'zgarayotgan talablariga javob berish uchun zarur bo'lgan muammolardir. Kompyuter texnologiyalari, internet va raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, onlayn ta'limning rivojlanishi hamda o'qituvchilarning yangi texnologiyalarga moslashishidagi qiyinchiliklar ham pedagogik muammodir. Bundan tashqari ta'limni individualizatsiya qilish: Har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda o'qitish metodlarini ishlab chiqish, o'quvchilarni o'z sur'atida rivojlantirish. Birinchi navbatdagi ko'nikmalarni rivojlantirish: 21-asrda global iqtisodiyot va texnologiyalar o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni (masalan, analitik fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoaviy ish) rivojlantirishga urg'u berish. O'qitish jarayonida o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy holatlarini hisobga olish, ularga xavfsiz va sog'lom ta'lim muhitini yaratish. Pedagogik etika va o'qituvchining roli: O'qituvchilarning professional axloq va ma'naviy me'yorlarini saqlash, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish. Kabi qator jarayon va tizimlarga yechimlarni ishlab chiqish ham pedagogic muammolardandir. Endi ushbu pedagogik ijtimoiy muammolarni ta'lim tarbiya tizimiga bog'lab chiqadigan bo'lsak quidagicha

tizimlashtirishimiz mumkin bo'ladi: Ijtimoiy tengsizlik va ta'lim imkoniyatlarining farqlanishi: O'quvchilarning turmush sharoiti, hududiy farqlar, moddiy imkoniyatlar va ijtimoiy holati ta'lim olish imkoniyatlariga ta'sir qilishi. Bu muammo o'quvchilar orasida tenglikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashni talab qiladi. Bu kabi pedagogik muammolarni bartaraf etishda tarbiyaviy ishlarni munosib qo'llash o'rinalidir. Shu bilan birgalikda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik: Oila va maktabning ta'lim jarayonidagi roli hamda o'quvchilarni tarbiyalashdagi mas'uliyatning taqsimlanishi. O'quvchilarning ijtimoiy, psixologik va akademik rivojlanishini samarali ta'minlash uchun oila va maktab o'rtasida kuchli hamkorlik o'rnatish zarur.

Jamoat muammolari va ularning ta'limga ta'siri: Jamiyatdagi ijtimoiy muammolar (narkomaniya, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, keksalarning ahvoli, oila ichidagi zo'ravonlik) ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir qiladi. Bu muammolarni hal qilishda pedagoglar va ijtimoiy pedagoglar o'quvchilarni to'g'ri yo'lga solishda, ularning ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarni ijtimoiy faollikka tarbiyalash: O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va faollikni rivojlantirish, ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida shakllantirish. Bu pedagoglarning ijtimoiy pedagogik yondashuvlarini va metodlarini talab qiladi, chunki o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rnini topishi ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

O'quvchilarni ijtimoiy faollikka tarbiyalash: O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va faollikni rivojlantirish, ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida shakllantirish. Bu pedagoglarning ijtimoiy pedagogik yondashuvlarini va metodlarini talab qiladi, chunki o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rnini topishi ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

Pedagoglarning ijtimoiy-psixologik malakalarini oshirish: Pedagoglar va ijtimoiy pedagoglarning ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishdagi malakalarini oshirish, ularga zamonaviy pedagogik metodlarni va ijtimoiy adaptatsiya vositalarini o'rgatish. Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyat, ta'lim muassasalari, oila va davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik va yangi ijtimoiy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarur. Shuningdek, ta'lim tizimida ijtimoiy pedagogik muammolarga yechim topish uchun mutaxassislarning doimiy o'qitilishi va malakalarini oshirish talab etiladi. Hozirgi malaka oshirish institutlari faoliyatini esa qayta isloh qilish lozim. Zero 21 asr yangiliklari va bolalarning bugungi kundagi psixologik rivojlanish parametrlari ta'lim va tarbiya jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda pedagoglarni mos tarzda malaka oshirishlarini ta'minlash lozim. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan yondashuv va tajribalarga tayangan holda yangi strategiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." The American Journal of Social Science and Education Innovations 2.12 (2020). 132-136.
2. Ergasheva . 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-ilmiy-tadqiqotningzamonaviy-muammolari>
3. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "COOPERATION BETWEEN STATE AND PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE MEANINGFUL ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE ACTIVITIES." Thematics Journal of Social Sciences 7.3 (2021).
4. A.A. Rashidov - A MODEL FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' COMPETENCEIN DESIGNING LEARNING-COGNITIVE ACTIVITY, SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, 2025. 146-152s
5. Nabiyeva Aziza. Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o'rganishning mavjud holati mazmuni. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025\12. cr 192-196.
6. **A RASHIDOV - O'QUV MASHG'ULOTLARINI INNOVATION TECHNOLOGIYA VA METODLAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH, O'zMU xabarlari 130 (2181-7324), 135-137bb.**
7. Rashidov Abduaziz Abduvali ugl i- COMPETENCE IN DESIGNING EDUCATIONAL ACTIVITIES FOR FUTURE TEACHERS DEVELOPMENT MODEL., LondonInternationalMonthly Conferenceon Multidisciplinary ResearchandInnovation WORLD SCIENCE PUBLISHINGLTD,LONDON , 2025/10/8, 147-150 bb.
8. A Rashidov . BOLAJAK OQITUVCHILARNI DARS MASHGULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDA LOYIHA METODINING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2023